QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI



# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH ISHLARI

2024-YIL YANVAR-APREL OYLARI

# Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi

**2024-yilning yanvar-aprel oylarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasida jami *1 818,9* mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 107,3 % ni tashkil etdi.**

**8,7 %**

Yirik qurilish tashkilotlari

***157,7***
mlrd. so‘m

2024-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan
***163,1 %***

**73,6 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar

***1 338,7***
mlrd. so‘m

2024-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan
***103,9 %***

**17,7 %**

Norasmiy sektor

***322,5***
mlrd. so‘m

2024-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan
***104,0 %***

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

2024-yilning yanvar-aprel oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 157,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 163,1 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 3,0 % punktga ko‘payib, 8,7 % ni tashkil etdi.

# Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2024-yil yanvar-aprel oylarida

**qurilish ishlari hajmi, mlrd. so‘m**




*Ma’lumot uchun:*

Respublika boyicha eng yuqori qurilish hajmini kórsatgan Nukus shahri 572,0 mlrd. so‘m, o‘sish sur’ati 110,4 %, To‘rtko‘l tumani 226,1 mlrd. so‘m va o‘sish sur’ati 105,6 %, , Ellikqal’a tumani 129,3 mlrd. so‘m, o‘sish sur’ati 127,8 %, Beruniy tumani 118,5 mlrd. so‘m, o‘sish sur’ati 121,1 %, Mo‘ynoq tumani 90,1 mlrd. so‘m, o‘sish sur’ati 108,5 %, ni tashkil etdi.

# Qurilish ishlari
# 2024-yil yanvar-aprel oylari uchun

| | Qurilish ishlari, mlrd. so‘m | Shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Yirik qurilish tashkilotlari | Kichik korxona va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 1 818,9 | 157,7 | 1 338,7 | 322,5 |
| Nukus sh. | 572,0 | 16,9 | 534,9 | 20,2 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Amudaryo | 107,3 | 5,6 | 65,7 | 36,1 |
| Beruniy | 118,5 | 3,2 | 96,8 | 18,5 |
| Bo‘zotov | 30,9 | 0,5 | 24,5 | 5,9 |
| Qorao‘zak | 29,3 | 2,6 | 20,7 | 6,0 |
| Kegeyli | 35,9 | 10,6 | 20,1 | 5,2 |
| Qo‘ng‘irot | 92,1 | 15,6 | 60,0 | 16,5 |
| Qonliko‘l | 28,7 | 2,1 | 8,1 | 18,5 |
| Mo‘ynoq | 90,1 | 43,7 | 38,3 | 8,1 |
| Nukus | 85,7 | 2,7 | 55,3 | 27,7 |
| Taxiatosh | 94,9 | 7,2 | 75,0 | 12,7 |
| Taxtako‘pir | 29,3 | 1,0 | 21,5 | 6,8 |
| To‘rtko‘l | 226,1 | 28,2 | 152,1 | 45,8 |
| Xo‘jayli | 65,2 | - | 44,8 | 20,4 |
| Chimboy | 66,5 | 3,2 | 18,7 | 44,6 |
| Shumanay | 17,0 | 1,4 | 3,4 | 12,2 |
| Ellikqal’a | 129,3 | 13,2 | 98,8 | 17,3 |

2024-yilning yanvar-aprel oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 157,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 163,1 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 3,6 % punktga ko‘paydi va 8,7 % ni tashkil etdi.

# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




*Ma’lumot uchun:* Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Mo‘ynoq tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 48,5 % i yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 230,5 %), Kegeyli tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 29,5 % i yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 587,0 %), Qo‘ng‘irot tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 17,0 % i yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 62,1 %) va Ellikqal’a (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 10,2 % i yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 888,2 %) tumaniga to‘g‘ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2024-yilning yanvar-aprel oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 73,6 % i to‘g‘ri kelib, 2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 2,5 % punktga kamaygan. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 103,9 % ni tashkil etgan holda 1 338,7 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

## Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da






***Ma’lumot uchun:** Joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko‘rsatkichi Nukus shahri (534,9 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 93,5 %), To‘rtko‘l tumani (152,1 mlrd. so‘m yoki 67,2 %) Beruniy tumani (96,8 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 81,7 %), ga to‘g‘ri keldi.*

# Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 17,7 % ni tashkil etdi yoki 322,5 mlrd.so‘m miqdorida qayd etildi. 2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 104,0 % ni tashkil etdi.




## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **54,3** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1 764,6** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **3,0 %** va **97,0 %** ni tashkil etdi.



# Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2024-yil yanvar-aprel oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **68,9** % i yoki **1 252,5** mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 94,6 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 7,6 % ni tashkil etdi.

**7,6 %** — **94,6** mlrd. so‘m

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 843,6 mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi 67,3 % ni tashkil etdi.

**67,3 %** — **843,6** mlrd. so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 314,3 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 25,1 **%** ni tashkil etdi.

**25,1 %** — **314,3** mlrd. so‘m

## Yillar bo‘yicha yangi qurilish hajmi va ulushi

| 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 yanvar-dekabr |
|---|---|---|---|---|
| 62,9 % | 64,2 % | 73,6 % | 75,0 % | 74,8 % |
| 2 086,5 mlrd. so‘m | 2 564,1 mlrd. so‘m | 3 300,3 mlrd. so‘m | 3 951,9 mlrd. so‘m | 4 470,7 mlrd. so‘m |

## Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi bino va inshootlarni qurishga 1 240,8 mlrd. so‘m, ulushi 68,2 % ni, fuqarolik obyektlarini qurishga 482,0 mlrd. so‘m, ulushi 26,5 % ni, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga 96,1 mlrd. so‘m va ulushi ulushi 5,3 %ni tashkil etdi




*Ma’lumot uchun:* Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

# Bino va inshootlar qurilishi




Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 5,2 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 % punktga ko‘paygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,7 % punktga ko‘payib, 68,8% ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 5,8 % punktga kamaydi va 26,0 % ni tashkil etdi.

# Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 17,8 % ni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 7,6 % punktga ko‘paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 82,2 % ni tashkil etdi.

***ulushi % da***



# Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga ko‘paydi va 7,4 % ni tashkil etdi. Qolgan, 92,6 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga kamaydi.

